


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

O'RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

**SAMARQAND VILOYAT O'RTA MAXSUS KASB-HUNAR
TA'LIMI BOSHQARMASI**

URGUT IQTISODIYOT VA SERVIS KASB-HUNAR KOLLEJI



Bajardi: Berdiyev Akbarali
Urgut iqtisodiyot va servis
kasb - hunar kollejining
Informatika fani o'qituvchisi

Urgut- 2013 yil

Kirish

Informakiga fani xozirgi kunda ta'lim sohasiga va turmush tarzimizga juda tez suratlar bilan kirib kelmoqda. Informatika fanini asosini axborot va axborot texnologiyalari dasturlar kompyuter grafiklari tashkil etadi.

Informatika fani kompyuterda ishlash ko'nikmalari haqida ma'lumot berib, u bilan muloqot o'rnatish usullarini o'rgatadi va unda turli masalalarni yecha olishga yo'naltiradi. Talabalar informatika fanini o'rganish jarayonida hozirgi zamon kompyuterlari bilan muloqotda bo'lib, uning texnik imkoniyatlarini o'zlashtirish, algoritmlash usullarini va turli amaliy masalalarni yechish uchun dasturlash tillaridan birida dastur tuzish, hamda amaliy dasturlar to'plamidan foydalana bilishi lozim.

Photo Shop rastrli grafik muhariri mavzusi bo'yicha Dars ishlanmasi Jomboy qishloq xo'jaligi kasb – hunar kollejida barcha yo'nalishlarda 2 soatdan qo'yilgan. Qayta tayyorlashga kelishimizdan maqsad shu va shunga o'xshash mavzularni interfaol usullar bilan o'tishdir.

ADOBE PHOTOSHOP Windows muhitida ishlovchi Macintosh va IBM PC kompyuterlar uchun mo'ljallangan elektron ko'rinishdagi fototasvirlarni tahrir qiluvchi dasturdir. Adobe Photoshop dasturi Adobe Sustem, Inc kompaniysi tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ishlatishdagi alohida qulayliklari bilan mashhur. Photoshop dasturi-grafik muharriri bo'lib, rastr (nuqtali) tasvirlar bilan ishlashga mo'ljallangan (rastr formatli grafik fayllar, fotografiya, tasvirlar va hakoza).

Adobe Photoshop tasvir tahrir qiluvchisi yordamida fotosuratlarga qo'shimchalar kiritish, fotosuratdagi dog'larni o'chirish va eski rasmlarni qayta ishlash va tiklash, rasmlarga matn kiritish, qo'shimcha maxsus effektlar bilan boyitish, bir fotosuratdagi elementlarni o'zgartirish, almashtirish mumkin. Adobe Photoshop imkoniyatlari keng qamrovli bo'lib, kitoblar, gazeta va jurnallarni turli-tuman rasmlar bilan boyitishda katta qulayliklar yaratadi.

Dars ishlanmasining maqsadi

Photo Shop rastrli grafik muhariri mavzusidagi Dars ishlanmasining maqsadi kasb – hunar kollejlarda informatika fanini o`qitishda pedagogic texnologiyalarni loyihalash va rejalashtirishdan iborat.

Pedagogik texnologiyalarni qo`llashimizdan maqsad o`quvchilarni shu fanga va mavzuga qiziqishini uyg`otish va barcha o`quvchilarni dars davomida jalb etishdir. Biz dars davomida ped texnologiyalardagi interfaol usullarni mahorat bilan qo`llay olsak dars sifati yuqori darajada bo`ladi va biz darsni samarali o`tkazib yuqori natijalarga erishamiz.

Dars ishlanmasining vazifalari

Dars ishlanmasining vazifalari informatika fani dasturida keltirilgan “Photo Shop rastrli grafik muharir” mavzusi bo`yicha ta’lim texnologiyasi modeli, o`quv mashg`ulotining texnologik xaritasi, o`quv jarayoning tashkiliy didaktik vazifasini bajaradigan ilovalarni tayyorlash hamda interfaol usullarni qo`llashdan iborat.

“Photo Shop rastrli grafik muharir” mavzusining ta’lim texnologiyasi modeli

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 15 ta
O`quv mashg`ulotining shakli va turi	amaliy
O`quv mashg`ulotining tuzilishi	1.Asosiy tushunchalar 2.Ishning boshlanishi 3.Photoshop dasturida ishchi oynaning ko`rinishi 4.Photoshop dasturining menyusi
Pedagogik vazifalar ➤ Photo Shop dasturi haqida umumiy tushunchalar berish ➤ Photo Shop dasturining boshqa dasturlar bilan bog`liqligi</li> <li>➤ Photo Shop dasturiga kirish</li> <li>➤ Photo Shop dasturinig oynasi tuzilishi</li> <li>➤ Photo Shop dasturining menyulari bilan tanishtirish</li> <li>➤ Photo Shop dasturining imkoniyatlarini ochib berish</li> <li>➤ Photo Shop dasturining qo`llanish sohalari	O`quv faoliyat natijalari</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>❖ Photo Shop dasturi haqida umumiy tushunchaga ega bo`ladilar ❖ Photo Shop dasturining boshqa dasturlar bilab o`xshashligi va afzalliklarini aytib beradilar</li> <li>❖ Photo Shop dasturini ochib beradilar</li> <li>❖ Photo Shop dasturining oynasi tuzilishini qandayligini ko`rsatib aytib beradilar ❖ Photo Shop dasturidagi menyular vazifalarini ko`rsatib beradilar</li> <li>❖ Photo Shop dasturining imkoniyatlari ko`rsatib beradilar ❖ Photo Shop dasturining qo`llanish sohalarini aytib beradilar
Ta’lim usullari	Ma’ruza, aqliy xujum, BBB texnologiyasi
Ta’lim shakillari	jamoaviy
Ta’lim vositalari	Ma’ruza matn, tarqatma materiallar, kompyuter
Ta’lim berish sharoiti	Kompyuter xonasi
Monitoring va baholash	Og`zaki so`rov va mashq bajarish

**“Photo Shop rastri grafik muhariri ” mavzusi bo`yicha ma`ruza
mashg`ulotining texnologik xaritasi**

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat	
	Ta`lim beruvchi	Ta`lim oluvchi
Mavzuga kirish	1.Mavzu nomi aytadi, reja va asosiy adabiyotlar aytiladi. (1-ilova) 2.O`quv mashg`ulotida o`quv mashg`ulotlarini baholash uchun tezkor savollar va mashq beriladi (2-ilova)	Tinglaydilar va yozib oladilar Javob beradilar va mashq bajaradilar
Asosiy bosqich	1. Oldin o`tilgan mavzu bo`yicha “Aqliy hujum” usulidan foydalaniladi. 2.BBB texnologiyasini qo`lash orqali aqliy hujum usulini tugatamiz (3-ilova) 3. Mavzu bo`yicha asosiy tushunchalar beriladi. 3.1 Photo Shop dasturiga kirish usullari ko`rsatiladi 3.2. Photo Shop dasturiningishchi interfeysi ko`rsatib beriladi 3.3. Photo Shop dasturining menyulari vazifalari ko`rsatiladi. 3.4.O`quvchilar mustaqil vazifalarni bajrirlari uchun yo`riqnomali texnologik xarita tarqatiladi.(4-ilova)	Javob beradilar Savol beradilar Yozib oladilar, tinglaydilar Mashq bajaradilar
Yakuniy bosqich	1.Mavzu bo`yicha yakuniy xulosa qilinadi. 2.Murakkab mashqlar bo`yicha ko`rsatma beriladi. 3.Uyga vazifa BBB texnologiyasining uchinchi B ya`ni Bilib oldik bo`limini to`ldirish. 4.Qo`shimcha ma`lumotlar uchun manbalar havola etiladi. (8-ilova)	Tinglaydilar Vazifalarni yozib oladilar Vazifalarni yozib oladilar Mustaqil ishlaydilar

Asosiy qism

Adobe Photoshop ayniqsa jurnalistlarning, rassomlarning ijodiy imkoniyatlarini to'la amalga oshirishlarida yordam beradi. Jurnalistika va bevosita matbuot yoki nashriyot sohasiga aloqodori bo'lgan shaxslarning mazkur dastur bilan ishlashni bilishi ular uchun qo'shimcha imkoniyatlarni yaratib beradi.

Adobe Photoshop dasturi quyidagicha ishga tushiriladi :

1. **Пуск** menyusi **Программы** bandining Photoshop belgisida «sichqoncha» ni bosiladi.

1. Windows ishchi stolida mavjud Adobe Photoshop uchun maxsus belgida «sichqoncha» ning chap tugmasi ikki marta bosiladi.

2. Dasturidan chiqish uchun quyidagi usullarni biridan foydalanish mumkin:

3. Alt Q F4 tugmalarini birgalikda bosish.

4. **Файл** menyusidagi **Выход**

5. Ekraning yuqori qismi o'ng burchagida joylashgan belgisini bosish yoki **Закрыт** buyrug'ini bajarish bilan.

Savollarga quyidagicha javob berish zarur:

ДА – kiritilgan matni o'zgarishlarni saqlash va dasturidan chiqish uchun.

НЕТ –kiritilgan matnda o'zgartirishlar saqlanmagan xolda dasturidan chiqish uchun.

Отмена - dasturda ishlashni davom ettirish uchun.

(5-ilova)

Adobe Photoshop dasturi ishga tushirilgandan so'ng ekranda Adobe Photoshop tasvir tahrir qiluvchi oynasi hosil bo'ladi.

Adobe Photoshop dasturining oynasi umumiy ko'inishi quyidagicha:

(6-ilova)

Bu dastur ishga tushirilgach dasturning yuqori qismida boshqa dasturlar kabi menyu paneli bo'lib, dasturda quyidagilar: **Файл**, **Редактирование**, **Изображение**, **Слой**, **Выделение**, **Фильтр**, **Вид**, **Окно** va **Помощь** bandlari joylashgan.

Adobe Photoshop oynasining yuqori qismida sarlavha satr va Windows ga xos elementlar joylashadi. Sarlavha satridan so'ng menyu satri joylashadi. Menyudagi kerakli buyruqlarni tanlashingiz mumkin.

Adobe Photoshop dasturi menyusi 9 banddan iborat. Har bir menyu tarkibida ochiladigan menyu banddlari mavjud. Ularni ko`rish kursor yordamida amalga oshirishladi. Quyida asosiy menyu va eng ko`p qo`llaniladigan buyruqlarning qisqacha tavsifi keltiriladi.

Photoshop dasturida ishchi oynaning ko`rinishi

Photoshop dasturining ishchi oynasi yuqoridagi rasmda ko`rsatilgan. Sichqoncha yordamida chertilsa qo`llanmalar bilan ishlovchi menyu chaqiriladi. Bu menyu quyidagi buyruqlardan iborat: **Restore** (Восстановить) Qayta tiklash, **Move** (Переместить) Siljitish, **Size** (Размер) O`lcham, **Minimize** (Свернуть) Kichkina qilish, **Maximize** (Развернуть) Katta qilish va **Close** (Закрыть) Yopish. Agarda Edit tugmasi bosilsa, hujjatlar bilan iwshlovchi menyu chaqiriladi. Hujjatlar menyusi quyidagi asosiy buyruqlardan iborat: **Restore** (Восстановить) Qayta tiklash, **Move** (Переместить) Siljitish, **Size** (Размер) O`lcham, **Minimize** (Свернуть) Kichkina qilish, **Maximize** (Развернуть) Katta qilish, **Close** (Закрыть)

Yopish va **Next** (Следующий) Kelasi.

Nomer panelining xohlagan asbobi sichqoncha bilan chertilsa, muloqat oynasiga, kichkina menyuchaga va buyruqlarga ruxsat olinadi.

Tanlangan asbobning parametrlarini aniqlash uchun opsiya panelidan foydalanamiz.

Qo`llanma oynasini yig`ish uchun **Minimize** bosiladi va natijada piktogramma masalalar paneliga joylashtiriladi. Oynaning avvalgi holiga qaytarish uchun shu belgiga sichqoncha bilan chertish kifoya.

Maximize (Развернуть) yoki hujjatdagi tugmalarni bosish esa oyna o`lchamlarini imkoniyat boricha kattalashtiradi. Agarda oynani avvalgi holatiga qaytarmoqchi bo`lsak Restore tugmasidan foydalanamiz. Oyna avvalgi holiga qaytgandan keyin Restore tugmasi Maximize tugmasiga aylanib qoladi. Yopish tugmasi qo`llanmani yopish uchun xizmat qiladi.

Dastur 13 ta politrage ega, ularni ekran bo`yicha siljitish guruhlanishni o`zgartirishi yoki sukut (по умолчанию) saqlagan holda qabul qilishi mumkin. Palitra guruhidagi politra nomiga chertilsa, u berilgan stekning eng yuqorisiga joylashtiriladi. Asboblari panelini yoki joriy bo`lgan politralarini ko`rsatish/ yo`qotish uchun Tab tugmasi bosiladi.

Photoshop dasturining menyusi

Fie menyusi -bu menyu bandida новой - yangi kartinka tuzish, открыть- Kartinalar katorini chakirish va tanlangan kartinani ochish, открыть последней-oxirgi faylni ochish, Закрыть- kartinani yoki faylni yopish, Soxranit-xotirada saqlash.

Jildlar oynasi xujjatlar va ilovalarni izlash tanlash va yuklash uchun ishlatiladi. Jildlar oynasi Windowsning boshqa ob'ektlari, znachoklari va oynani boshqarish elementlarini o`z ichiga oladi.

Ilovalar oynasi asosan hujjatlari bilan ishlashda qo`llaniladi. Bu oynalar ilovalarga hujjat sifatida yuklatilgan axborotni va ilovalarni boshqarish elementlarini o`z ichiga oladi.

Muloqot oynasi faqat boshqarish elementlarini o`z ichiga olishi bilan boshqa oynalardan farq qiladi. Ular yordamida operatsion tizim va uning ilovalarini boshqarish mumkin.

Ma'lumotlar tizimi oynasi operatsion tizim va ilovalar ishi haqidagi ma'lumotlarni o`z ichiga oladi.

Endi jildlar oynasining asosiy qismlarini aniqlashtirib olamiz. Buni «Korzina» (savat) oynasi misolida ko`rib chiqamiz. Birinchi qator (aksariyat xollarda bu ko`k rangdagi qator) oyna nomidir. Agarda shu qatordagi Ilovaning rasmchasiga bosilsa, oyna joylanishini va o`lchovlarini belgilovchi buyruqlar paydo buladi.

Birinchisi – «Свернуть» (yigib olish). U Ilova oynasining masalalar panelidagi to`rtburchak tugmacha shaklida (darchadek) yigib oladi. Sichqoncha tugmachasini «darcha» ustida bir marta bosish oynaning oldingi ulchovi va joylashishini tiklaydi. (Bu turtburchak tugmachalar barcha minimallashtirilgan oynalar ko`rinishi uchun uning o`lchovini avtomatik ravishda o`zgartiradi).

Ikkinchisi – «Развернуть» (yoyish). U Ilova oynasini butun ekranga (yoki hujjat oynasini butun ilova oynasiga) yoyib tashlaydi. Shunga ahamiyat berish kerakki, Masalalar paneli oyna maksimallashtirilgan xolda ko`rib turadi. Sichqoncha « Развернуть » (yoyish) piktogarammasi ustida bosilganidan keyin uning o`rnida boshqa ikki kvadratlik piktogramma paydo buladi. Hosil bo`lgan piktogrammaning ustida sichqoncha bosilsa, oyna oldingi holatiga qaytadi.

Uchinchisi – «Закрыть » (Yopish). U joriy ilovani yopadi va bajarilayotgan ishning saqlab qolinmagan natijalarini saqlaydi. (Bu operatsiya klaviaturada Alt-f4 tugmachalar kombinatsiyasi yordamida amalga oshiriladi. Joriy Ilovani yopish uchun ilovaning sistema menyusi tugmachasini ikki marta bosish ham mumkin.

Oynadagi keyingi qator – Menyular qatori . Unda bir nechtdan buyruqlarni o'z ichiga olgan menyular joylashgan . Bular «Fayl» (fayl), «Pravka» (to'grilash), «Vid» (ko'rinish), «Perexod» (o'tish), «Izbrannoe» (tanlangan), «Spravka» (ma'lumot) menyularidir.

Oynaning chetlarida vertikal va gorizontal aylantirish tasmalarini ko'rish mumkin. Oynaning quyi qismida holat qatori joylashgan. Menyular qatori ostida piktogrammalar qatori mavjud. Bu qatorda ko'p ishlatiladigan buyruqlar belgilari joylashgan. Undan keyin odatda adres qatori joylashadi.

«Vid» (ko'rinish) menyusiga kirib, oynadan namoyon bo'lgan ob'ektlarning belgilarini o'zgartirish mumkin. «Krupno'e znachki» (Yirik belgilar) buyrug'i ob'ektlarni katta piktogrammalar shaklida ko'rsatadi. «Melkie znachki» (mayda belgilar) buyrug'i ob'ektlarni mayda shaklda, «Spisok» (ruyxat) – ob'ektlarni ro'yxat shaklida, «Tablitsa» (Jaldval) – ob'ektlarni unga tegishli ma'lumotlari (Xajmi,sanasi, yaratilish vakti) bilan birgalikda ko'rsatadi.

Ish stolida joylashgan yorliklar o'lchamini o'zgartirmokchi bo'lsangiz, yana ish stolining bo'sh joyida sichkonchaning o'ng to'g'masini bosasiz. Xosil bo'lgan ro'yxatdan «Svoystva» (xossalar) buyrugini tanlang. Namoyon bo'lgan oynada «ParametrO'» (parametrlar), so'ng «Nastroyka» (sozlash) kismiga kiring. «Rabochiy stol» (ish stoli) kismida ko'rsatkich «Menshe» (kichik) tomonga surilsa, ekrandagi yorliklar o'lchovi kattalashadi, aksincha «Bolshe» (katta) tomonga surilsa kichkinalashadi.

Joriy oynaning «Fon» kismiga o'tilsa, ish stolining rasmini, yani fonni o'zgartirish mumkin. Oynadagi ekran namunasining tagida ikkita ustun mavjud: birida nakshlar ro'yxati, boshkasida – rasmlar ro'yxati aks ettirilgan byladi. Keraqli rasmini tanlab olib, uni ekran namunasida kырганингиздан сынг, «Primenit» (ko'llash) tugmachasini sichkoncha bilan bossangiz rasm o'zgaradi. Joriy oynaning «Zastavka» (peshlavxa) kismida Peshlavxa o'zgartiriladi. Ushbu jarayon yukoridagi fonni o'zgartirgan kabi amalga oshiriladi.

O'zingiz mustaqil ishlab, xar ikki kismining o'xshash tarzda ishlashiga amin bo'lasiz.

ФАЙЛ менюси quyidagi buyruqlardan iborat:

Новый (CtrlQN)-

Yangi fayl yaratish.

Открыть (CtrlQO)-	Bu buyruq yordamida diskda mavjud fayllar ochiladi.
Открыть как (AltQCtrlQO)-	Faylni qanday ko`rinishda ochishni tanlash.
Сохранить (ShiftQ S)-	Faylga nom berish
Сохранить как-	Faylni xotiraga boshqa nom bilan (ShiftQCtrlQS) saqlash
Сохранить Копию -	Tasvir nusxasini xotiraga saqlash. (AltQCtrlQS)
Вернуть-	Tasvirning dastlabki holatiga qaytish.
Поместить-	Boshqa mustaqil fayl bilan birlashtirish.
Импорт-	Boshqa direktoriyada joylashgan faylni Adobe Photoshop dasturiga olib kirish.
Экспорт-	Tasvirni boshqa dastrularga jo`natish.
Файл информация -	Fayl haqidagi ma'lumotlarni kiritish.
Установка страницы -	Ochilgan fayldagi betini shaklini (ShiftQCtrlQP) tanlash.
Печать (Ctrl+P)-	Tasvirni printeriga jo`natish.
Предпочтения-	Adobe Photoshop dasturini kerakli tartibda sozlash.
Настройка цвета-	Tasvir ranglarini sozlash.
Adobe online-	Internet bilan bog`lanish.

Выход (Ctrl+Q)-

Dasturidan chiqish.

Правка менюси quyidagi buyruqlardan iborat:

Вернут (Ctrl+Z)	Tasvir ustida bajarilgan oxirgi amalni bekor qilish.
Резать (Ctrl+X)	Tasvirning ajratilagan qismini qirqib olish va kerakli joyga qo'yish yoki butunlay qirqib tashlash.
Копировать (Ctrl+C)	Tasvirni belgilangan qismini nusxaga olish.
Вставить (Ctrl-V)	Xotiraga olingan tasvirni belgilangan joyga qo'yish.
Вставить В (Shift+Ctrl+V)	Tasvirda belgilangan maydonni tozalash, o'chirish.
Очистить	Bunda o'chirilgan maydon fon rangiga bo'yaladi.
Залить	Tasvir yuzini rang bilan bo'yash.
Штрих	Tasvirda belgilangan maydonni shtrixlab ko'rsatish.
Трансформация (Ctrl+T)	Tasvir shaklini o'zgartirish.
Трансформ	Tasvir shaklini turli ko'rinishlarda o'zgartirish.
Очистка	Istoriya darchasida tasvir olib borilgan o'zgartirish amallarini butunlay o'chirish. Bu amal bajarilgandan so'ng

o`zgartirish-larni ortga qaytarish
mumkin emas.

ИЗОБРАЖЕНИЯ менюси quyidagi buyruqlardan iborat:

Режим	Rang modellarni o`zgartirish.
Настройка	Tasvir ranglarini sozlash.
Дубликат	Tasvirdan nusxa olish.
Наложить изображение	Tasvirni qo`shimcha ranglar bilan boyitish.
Вычислить	Tasvirdagi ranglar kanallarni o`chirish.
Размер изображения	Tasvir shaklini va o`lchamlarini o`zgartirish.
Размер холста	Tasvir ramkasi o`lchamlarini o`zgartirish.
Обрезание	Belgilangan maydondagi tasvirni kesib olish.
Перевернуть холст	Xolstni soat strelkasi bo`ylab yoki soat strelkasiga qarshi 180, 90 gradusga burish.
Гистограмма	Tasvirdagi ranglar miqdori haqidagi ma'lumotlar darchasi.

Слой менюси tarkibidagi qo`shimcha buyruqlar

Новый	Yangi qatlamni tashkil qilish.
-------	--------------------------------

Дубликат слоя	Qatlam nusxasini xosil qilish.
Удалить слой	Mavjud qatlamni muvaqqat xotiradan o`chirish.
Эффекты	Qatlamga turli effektlarni qo`yish.
Группа с предыдущим (Ctrl+G)	Bir nechta qatlamlarni gruppalash.
Разгруппировать (Shift+Ctrl+G)	Gruppalangan qatlamlarni bir-biridan ajratish
Склеить все слои	Barcha qatlamlarni birlashtirish.

ВЫДЕЛИТЬ menyusi quyidagi buyruqlardan iborat :

Все (Ctrl+A)	Tasvirni butunlay belgilash.
Убрать выделение (Ctrl+D)	Tasvirning belgilangan qismini olib tashlash.
Выделить заново (Shift+Ctrl+D)	Qaytadan belgilash.
Обратно (Shift+Ctrl)	So`ngi bajarilgan amalga qaytarish.
Цветовой ряд	Ranglar qatori. Tasvirdagi ranglar asosida belgilash maydonini aniqlash.
Модифицировать	Belgilash chizig`ini piksellarda kengaytirish.
Увеличить	Belgilash maydonini kengaytirish.
Преобразовать выделение	Belgilangan maydon shaklini o`zgartirish
Сохранить выделение	Belgilangan maydon shaklini xotiraga joylashtirish.

ВИД менюси quyidagi buyruqlardan iborat :

Новый вид	Yangi darchada ochish.
Увеличить (Ctrl++)	Tasvirning ekrandagi ko`rinishini kattalashtirish.
Уменьшить (Ctrl+-)	Tasvirning ekrandagi ko`rinishini kuchaytirish.
Показать весь экран	Tasvirini butun ekran ko`rinishida ko`rsatish.
Реальный размер	Tasvirini mavjud o`lchamlaridagi ko`rinishi.
Размер печатного оттиска	Tasvirning bosma shakldagi ko`rinishi.
Выкл. линейки (Ctrl+R)	Chizg`ichlarni olib tashlash.

ОКНО менюси quyidagi buyruqlardan iborat :

Каскад	Tasvirni ekranda vertikal xolatda tasvirlash.
Мозайка	Tasvirni ekranda gorizontal xolatda tasvirlash.
Упорядочить значки	Asboblarni panelidagi buyruqlarini tartibli joylashtirish.
Заккрыть всё	Photoshop darchasida ochilgan barcha tasvirni berkitish.
Вкл. Панель	Asboblarni panelini o`chirish yoki yoqish.
Вкл. Навигатор	Navigаторning ekranda paydo bo`lishini ta'minlash.

Показать информацию	Axborotlar darchasini aktivlashtirish.
Показать цвет	Ranglar joylashgan maxsus darchani aktivlashtirish.
Вкл. Кисти	Bo`yoq cho`tkalari joylashgan darchani aktivlashtirish.
Вкл. Слой	Qatlamlar haqidagi ma'lumotlarni saqllovchi darchani aktivlashtirish.
Показать действия	Tasvirlar bilan ishlashda bajarilgan barcha amallar haqidagi ma'lumotlar darchasini aktivlashtirish.

Убрать строку состояния Photoshop dasturi darchasi ostidagi ma'lumotlar satrini o`chirish yoki yoqish.

ФИЛЬТРЫ menyusi tarkibidagi qo`shimcha buyruqlar bilan qo`llanmaning fitrlar bilan ishlash bobida tanishingiz mumkin.

ПОМОЩЬ menyusi tarkibida Adobe Photoshop dasturiga ta'lluqli barcha ma'lumotlar joylashgan. Bu menyu tarkibidagi buyruqlar yordamida Adobe Photoshop dasturi darchasidagi asboblarning qisqacha qanday vazifani bajarishi haqidagi ma'lumotlarni o`qish mumkin.

Tayanch iboralar: asboblarning to'plami, ranglar palitrasi, tiff, gif, jpeg, eps kengaytmasi, rastrli grafika, menyu.

(1- ilova)

Мавзй: PhotoShop rastrli grafik muhariri.

Режа:

- 1.Asosiy tushunchalar
- 2.Ishning boshlanishi
- 3.Photoshop dasturida ishchi oynaning ko'rinishi
- 4.Photoshop dasturining menyusi

Asosiy adabiyotlar:

- 1."Informatika" Yu. Yuldashev Toshkent 2002
2. "Axborot tizimlari va texnologiyalari" G`ulomov S. va boshqalar Sharq 2000
3. "Kompyuter bilan yuzma yuz" Mingboyev N.

Nazorat savollari va mashqlar:

- 1.Kompyuter grafikasi haqida nimalarni bilasiz?
- 2.Adobe Photoshop dasturining imkoniyatlari aytib bering.
- 3.Adobe Photoshop dasturida faylni saqlang.

- 1.Adobe Photoshop dasturining vazifasi nimadan iborat?
- 2.Adobe Photoshop dastur qanday ishga tushiriladi va ishi yakunlanadi?
- 3.Adobe Photoshop dasturida ishchi oynasini ko'rinishi qanday?

- 1.Adobe Photoshop dasturi necha menyudan iborat va ularning vazifalarini ayting?
- 2.Adobe Photoshop dasturida oylana rasmini chizing va bo`yang.
- 3.Adobe Photoshop dasturida chizgan rasmlaringizni saqlang.

- 1.Adobe Photoshop dasturida tayyor rasmlar bilan ishlang, ya'ni rangini o`zgartirish.
2. File menyusidagi buyruqlarni aytib bering.
3. Vid menyusidagi buyruqlarni aytib bering.

“Aqliy hujum” usuli va BBB texnologiyasi.

Savol

Kompyuter grafikasi nima va unda qo`laniladigan dasturlar qaysilar?




Bilaman	Bilishni hohlayman	Bilib oldim
1.Kompyuter grafikasi rastrli va vektorli bo`ladi 2. Nuqtalar majmuasi pikseller deyiladi 3.Kompyuter grafikasi vektrli va rastrli grafikadan tashkil topgan 4.Photo Shop dasturi 5.Corell Draw dasturi 6.Auto Cad dasturi 7.Flesh MX dasturi	1.Photo Shop dasturiga kirish 2. Photo Shop dasturida ishlash 3. Photo Shop dasturi menyulari bilan tanishish	1. Photo Shop dasturi ga kirishni 2. Photo Shop dasturining imkoniyatlari 3. Photo Shop dasturida fayl yaratish 4. Photo Shop dasturidagi faylni saqlash 5. Photo Shop dasturi menyulari bilan ishlash


(4-ilova)

Yo`riqnomali texnologik xarita


Fan: Informatika

Mavzu: PhotoShop rastrli grafik muhariri.




t/r	Bajariladigan ishlar mazmuni	Asbob va jixozlar	Ishlarning bajarilish tartibi	Eskiz va rasmlar
1	Adobe Photo Shop. dasturida ma'lumotlarni tashkil etish	Kompyuter, disklar	Пуск → Все программы → Adobe Photo Shop. Adobe Photo Shop dasturi shu tariqa ochiladi.	
2	Faylni saqlash	Kompyuter, disklar	Файл → Сохранить как bo'limi tanlanadi va saqlanadigan joy tanlanadi. Ойна ochiladi va Имя файла degan joyiga faylga nom beriladi shundan so'ng, Сохранить tugmasi bosiladi.	
3	Fayl yaratish	Kompyuter, disklar	Файл → Новый degan buyruq tanlansa joy ochiladi va fayl yaratish imkoniyati yaratiladi.	
4	Photo Shop dasturidan chiqish	Kompyuter, disklar	1. Файл → Выход 2. Ekraning yuqori o'ng burchagida joylashgan X tugmasini bosish orqali 3. ALT Q F4	



(6-ilova)



(7-ilova)



(8-ilova)

Qo`shimcha adabiyotlar

1. WWW. Ziyonet. uz
2. WWW. Edu.uz
3. WWW.Ref.uz

XULOSA

PhotoShop rastrli grafik muhariri mavzusini Dars ishlanmasini qilish davomida interfaol usullardan informatika faniga moslashtirib tayyorladim. Bulardan “aqliy hujum”, “BBB texnologiyasi”, “Yo`riqnomali texnologik xarita” kabilardir.

Bu usullardan foydalanish davomida o`quvchilarni faolligi oshiriladi va erkin fikrlay boshlaydi. Men bu Dars ishlanmasida “aqliy hujum” va “BBB texnologiyasi” ni uygulashtirgan holda qo`lladim. Sababi o`quvchilarni erkin fikrlashini oshirish va qobiliyatini sinashdir.

Mavzuni tushuntirishda esa, “yo`riqnomali texnologik xarita” dan foydalandim. “Yo`riqnomali texnologik xarita” o`quvchilarni oldiga qo`yiladi va o`quvchi mustaqil ravishda kompyuterda bajaradi. Bu texnologiyani qo`llashda o`quvchida malaka va ko`nikma shakllanadi.